

HAQQULOBOB SHAHARCHASI TARIXI HAQIDA

Ilmiy rahbar: I.M.Xaydarov

*TDSHU "Markaziy Osiyo xalqlar,
tarixi" kafedrası professori.*

*Inomjonova.H - TDSHU,
Filologiya va tillarni o'qitish:
Koreys tili 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati Norin tumanining markazi bo'lmish Haqqulobod shahri tarixi, shakllanish jarayoni va bugungi taraqqiyoti haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, aholining turmush tarzi, tabiati, iqlimi hamda Haqqulobodning viloyat hayotidagi o'rni haqida ham ma'lumot beriladi. Mazkur maqola Haqqulobod shahri tarixi bilan qiziqadigan har qanday o'quvchi uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Haqqulobod, Norin tumani, tarix, Namangan, sanoat, iqtisodiyot, mahalla, Qoradaryo, geografiya.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududlarining qiyofasi jadal sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Yangi shaharlar, qishloqlar, mahallalar barpo etilib, mavjudlari yangilanmoqda. O'zbekistonning barcha hududlari singari Namangan viloyatining qadimiy va zamonaviyligi birlashgan maskanlaridan biri — Norin tumani va uning markazi hisoblangan Haqqulobod shahridir. Ushbu hudud uzoq yillik tarixga, o'ziga xos madaniyatga ega bo'lib, bugungi kunda ham iqtisodiy va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi.

Haqqulobod — Namangan viloyatining go'zal shaharlaridan biri bo'lib sharqiy qismida joylashgan. Haqqulobod 1974-yildan boshlab rasmiy ravishda shahar maqomiga ega. Shahar asosi 1926-yil 26-sentabrda qo'yilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan Norin tumanining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylandi. Viloyat markazi Namangan shahridan taxminan 40 km sharqda joylashgan. Temir yo'l stansiyasiga ega bo'lgani uchun hududning transport infratuzilmasi ham yaxshi rivojlangan. Aholisi 2005-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 27,5 ming nafardan ziyod bo'lgan. Bugungi kunda aholi soni bundan ham ko'p bo'lib, shahar kengayish jarayonini davom ettirmoqda.

Haqqulobod shahri majoziy ma'noda Norin tumanining yuragi hisoblanadi. Hudud relyefi past-baland tekisliklardan iborat bo'lib, Qoradaryo vodiysining unumdor yerlari bilan ajralib turadi. Shahar hududidan Andijon–Toshkent avtomobil yo'li ishi transport aloqalarini yanada qulaylashtiradi.

Norin tumani Fargʻona tizmasi etaklarida joylashgan boʻlib, hududning umumiy maydoni 207 kv.km ni tashkil etadi. Iqlimi quruq va kontinental:

Yoz issiq (oʻrtacha $+27^{\circ}\text{C}$ va undan yuqori), qish sovuq (-6°C atrofida), yillik yogʻin miqdori 190–215 mm.

Hududdan Qoradaryo oqib oʻtadi, shimoldan janubga katta Andijon kanali kesib oʻtadi. Ushbu tabiiy suv manbalari dehqonchilikning rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Shahar Norin tumanining sanoat va iqtisodiy markazi hisoblanadi. Hududda: “Norin paxta tozalash” AJ, Non mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari, Yigiruv-toʻquv fabrikalari, Avtokorxonalar va qurilish tashkilotlari, Tikuvchilik korxonalari, Kichik va oʻrta biznes korxonalari, Savdo va xizmat koʻrsatish shoxobchalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, toʻqimachilik sohasiga ixtisoslashgan Oʻzbekiston-Litva “Klayna–Tekstil”, “Haqqulobod-PIK” qoʻshma korxonasi ham ishlab turibdi. Milliy hunarmandchilik — kosibchilik, zardoʻzlik, tikuvchilik kabi anʼanaviy kasblar ham rivojlangan.

Haqqulobod shahrida aholining maʼnaviy va madaniy ehtiyojlari uchun barcha sharoitlar mavjud. Shahar hududida: 6 ta umumiy oʻrta taʼlim maktabi, aniqlashtirilgan fanlar va ingliz tiliga ixtisoslashgan internat maktab, 1 kasb-hunar kolleji, 1 akademik litsey faoliyat koʻrsatadi. Shuningdek, tuman markaziy kutubxonasi, 4 ta filial kutubxonasi, bolalar kutubxonasi, klub muassasalari ham aholiga xizmat qiladi. “Shodlik” stadioni va zamonaviy sport inshootlari yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazishiga yordam bermoqda.

Shahar koʻrkiga koʻrk qoʻshib turgan inshootlar qatorida: yoshlar markazi, “Nuroni” tantanalar majmuasi, “Orzu” choyxonasi, “Ziyod” toʻyhanasi kabi maskanlar alohida oʻrin tutadi. Bu joylar aholining turmush tarzida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot sohasida ham, Tuman markaziy kasalxonasi, bolalar kasalxonasi, kattalar va bolalar poliklinikalari, oʻsmirlar stomatologiyasi, dorixonalar barqaror ishlab turadi.

Haqquloboddan Toshkent, Namangan, Andijon, Chinobod, Uchqoʻrgʻon va viloyatning boshqa shaharlariga marshrutli taksilar qatnaydi. Bu aholining kunlik qatnovi uchun juda qulay transport tizimini yaratadi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Haqqulobod shahri Namangan viloyatining iqtisodiy, maʼmuriy, madaniy va ijtimoiy hayotida muhim oʻrin egallaydi. Qadimiy tarixga ega boʻlgan bu hudud bugungi kunda ham rivojlanib, yangilanib borayotgan zamonaviy shaharlar qatorida turadi. Shahar aholisi mehnatsevar, hunarmandchilik va dehqonchilik anʼanalarini davom ettirib keladi. Haqqulobodning qulay geografik joylashuvi, rivojlangan infratuzilmasi va sanoat korxonalari uni viloyatdagi yetakchi markazlardan biriga aylantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Namangan viloyati tarixi. — Toshkent, 2010.
2. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 6-jild.
3. Norin tumani ma’lumotlari, O‘zbekiston statistika agentligi.

